

# Eskiz

**Urishev Adhamjon Ergashaliyevich**


Eskiz deb chizmachilik asboblsrisiz, ko’z  
chamalab, chizmachilik qoidalari va nisbatlarni  
saqlagan holda chizilgan chizmaga aytialdi.

- Eskizlar mavzusining asosiy maqsadi chizmachilikni o’rganish jarayonida talabaning chizma chizish mahoratini oshirishdir. Shu bilan birga buyumning asliga qarab uning eskizi chizilganda detalning ichki va tashqi tuzilishi, elementlarining shakli va o’zaro munosabati chuqurroq o’rganiladi, talabaning ijodiy tasavvur etish qobiliyati oshadi.

- Eskizni juda kichik qilib bajarilish tavsiya etilmaydi. Tasvirning kattaligi detlaning murrakabligiga va qog'ozning formatiga qarab tanlanadi. Shu bilan birga hamma kerakli o'lchamlarni va boshqa ma'lumotlarni yozishga imkon berishi kerak. Chizmani to'g'ri kompanovka (joylashtirish) qilish uchun dastlab ko'rinishlar, ularning soni va gabarit o'lchamlari aniqlanadi. Agar ko'rinishlar uchta bo'lsa quyidagi formuladan foydalanishingiz mumkin:

$$a \approx \frac{A - (z + y)}{3}$$







$$b \approx \frac{B - (x + y)}{3}$$




- formuladagi A va B chizma yuzasi o'lchamlari; x, y, z lar ko'rinishlarning mos ravishdagi gabarit o'lchamlari.

# Eskizlarni quyidagi tartibda chizish tavsiya etiladi:

1. Detalning formasi va uni tashkil etgan elementlari diqqat bilan o‘rganiladi, nomi, vazifasi va materiali aniqlanadi.
2. Detalning asosiy ko‘rinishi, vaziyati, boshqa zarur ko‘rinishlar soni aniqlanadi va qog‘ozning formati belgilanadi.
3. Formatning hoshiyasi chiziladi, asosiy yozuvga joy qoldiriladi, har bir ko‘rinishning simmetriya o‘qlari va aylanalarining o‘qlari o‘tkaziladi.





17-chizma

18-chizma

4. Detalning tashqi konturi uning elementlari orasidagi nisbatlarni saqlagan holda ingichka chiziq bilan chiziladi. Chizmada ko‘rimlilikni ta’minlash maqsadida ingichka chiziqlar ham qalinlashtirib ko‘rsatilmoqda. 16-chizma. Buyumni tashkil etuvchi asosiy elementlarining konturlari chiziladi. Aylanalarни tasvirlashni osonlashtirish uchun ularga tashqi urinma bo‘lgan kvadratlar tarzida ifodalash tavsiya etiladi 17-chizma.
5. Detalning ichki tuzilishi ko‘rinmas kontur chiziqlar bilan ingichka qilib chiziladi. Ichki kontur chiziqlarni maqsadga muvofiq ravishda qirqim va kesimlar bajarilishi nazarda tutilgan holda chizish kerak.

6. Aylanalarni ifodalovchi kvadratlar yordamida aylanalar va yoylar quriladi. Zarur bo'lgan kesim va qirqimlar bajariladi. Ortiqcha chiziqlar o'chiriladi. 18-chizma.
  7. Kerakli va yetarli o'lcham chiziqlari o'tkaziladi. Strelkalar detal va uning elementlari shakllarni ifodalovchi shartli belgilar (aylana, kvadrat, radius, sfera va hokazo) g'adir-budurlik belgiar qo'yiladi. Qirqim va kesimlarda shtrixlash bajariladi. FOCT 2.303-68 ga muvofiq ko'rinishlardagi chiziqlar yo'g'onlashtiriladi. Asosiy yozuv to'ldiriladi.
  8. O'lchash asboblari yordamida detaldar zarur bo'lgan o'lchamlar olinadi va eskizga kiritiladi. Detalni tashkil etuvchi sirtlarning g'adir-budurlik qiymatlari qo'yiladi. Zarur hollarda detalga oid bo'lgan texnikaviy talablar izoh yozuvida ko'rsatiladi. 19-chizma.

